

MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Norin xizmat ko'rsatish va
servis texnikumi o'qituvchisi
Ergasheva Naima

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanish istiqbollarini, joriy islohotlarni va xalqaro tajribalardan olingan saboqlarni tahlil qiladi. 2025-2030 yillarga mo'ljallangan yangi dasturlar, metodik yondashuvlar va tizimli o'zgarishlar yoritilgan bo'lib, ular maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Maqolada "Ilk qadam" dasturining yangi pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi.

Abstract: This article analyzes the prospects for the development of the preschool education system in Uzbekistan, current reforms and lessons learned from international experience. New programs, methodological approaches and systemic changes for 2025-2030 are highlighted, which are aimed at improving the quality of preschool education. The article analyzes new pedagogical approaches of the "Ilk qadam" program.

Аннотация: В данной статье анализируются перспективы развития системы дошкольного образования в Узбекистане, текущие реформы и извлеченные уроки из международного опыта. Освещены новые программы, методические подходы и системные изменения на 2025-2030 годы, которые направлены на повышение качества дошкольного образования. В статье анализируются новые педагогические подходы программы «Ilk qadam».

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, intellektual qobiliyat, ota-ona, bola, pedagog, hamkorlik, oila, mahalla.

Keywords: preschool education, intellectual abilities, parents, child, teacher, cooperation, family, neighborhood.

Ключевые слова: дошкольное образование, интеллектуальные способности, родители, ребенок, педагог, сотрудничество, семья, соседство.

Maktabgacha ta'limda rivojlanish istiqbollari dunyo miqyosida va ayniqsa O'zbekistonda yangicha pedagogik yondashuvlar, texnologiyalar va ijtimoiy talablar asosida shakllanmoqda. Ushbu soha har bir inson hayotida muhim davr hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim yosh davrida kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish kelgusi faoliyat uchun zamin yaratadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasiga e'tibor qaratilishi- yosh avlodni davlat talablari asosida tahsil olishini va har tomonlama yetuk va intellektual qobiliyatlarini shakllanishiga, aqliy va ruhiy tomonlama sog'lom

bo'lishida kata o'rin egallaydi. Bunda maktabgacha ta'lim sohasi ilk poydevor sanaladi. Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish istiqbollari ta'lim tarbiya jarayonida har bir bolaning individual ehtiyojlarini, qobiliyatlari va rivojlanish sur'atlarini hisobga olgan holatda tashkil etilishi, inklyuziv ta'limni qo'llab quvvatlash ya'ni imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom muhitga qo'shish orqali barcha bolalarni ta'limga jalb etilishi belgilab o'tilgan. Imkoniyat cheklangan bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda va MTT infratuzilmasini har bir bolaning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil etilishi bu maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish istiqbollaridan biridir.

Bundan tashqari, ta'lim jarayonini STEAM texnologiyalari orqali olib borilishi, pedagoglar faoliyatini kreativlashtiradi va qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi. STEAM ta'lim texnologiyasi bugungi kunning eng samarali va yoshlar uchun, ularda ijodkorlik, mantiqiy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar ishlab chiqishiga va o'zi mustaqil bo'lishiga yordam beruvchi ta'lim texnologiyasi sanaladi. Tarbiyalanuvchilar ushbu texnologiya orqali o'z qobiliyatini namoyish etishi, muammolariga yechim topishi, fikrlashi va yangi g'oyalar yaratishiga turtki bo'ladi.



STEAM asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon bolalarni o'rganish jarayonini qiziqarli qiladivа tajriba o'ttirish imkoniyatini beradi. Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishda interfaol metodlar va dasturlar –soha istiqboliga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ushbu sohani yanada ravnaq topishiga asos bo'ldi. Mazkur konsepsiya-maktabgacha ta'limning xalqaro

andozalariga mos zamonaviy yangilanish tamoyillari va modellarini yorituvchi huquqiy-me'yoriy hujjatdir[1]. Konsepsiyada mamlakatimiz bolalar tarbiyasining yangi bosqichini belgilab berdi. Bu nafaqat maktabgacha ta'lim sohasida balki, butun jamiyatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Konsepsiyada ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, bolalarni zamonaviy dunyoga tayyorlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim sifatini yaxshilash nazarda tutilgan.

Barchamizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi sanaladi. Bu bo'g'inda bolaga yaxshi ta'lim tarbiya berilishi, uning intellektual qobiliyatlarini shakllantirilishi, jismoniy tomondan sog'lom bo'lishi kelgusi maktab hayotida egallashi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallashiga zamin yaratadi. Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish istiqbollariga soha xodimlari jumladan, pedagoglarni mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotli bo'lishi, ikkinchi tilni o'rganish bo'yicha keng imkoniyatlar yaratilishi, tarbiyachilar uchun turli ko'rik tanlovlar tashkil etilishi, ular uchun sohaga doir seminarlar va treninglarni tashkil etilishi ko'zda tutilgan va bularning barchasi amaliyotda joriy etilmoqda. O'zbekistonda xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ko'payishi, har bir tuman, hudud va chekka qishloqlarda maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olinmagan bolalar qamrovini kengaytirish sohani maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida o'z aksini topadi.



Xalqaro tashkilotlar (UNICEF, UNESCO) bilan hamkorlikda sifatli maktabgacha ta'limni rivojlantirish loyihalari-bu kabi loyihalar va amalga oshirilayotgan tadbirlar O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini xalqaro tajribalar asosida tashkil etish, va sohada yangi marralarni egallashga asos bo'ladi. Bunda xalqaro tajriba ya'ni Montessori, Reggio Emilia, Waldorf kabi xalqaro metodikalardan O'zbekiston sharoitida foydalanish ko'zda tutiladi. Yuqorida nomlari keltirilgan metodikalarni pedagoglar tomonidan o'rganilishi va o'zimizga uyg'unlashtirish orqali

ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsata olinadi. Nafaqat xalqaro tajribalar orqali balki, milliy qadriyatlar va an'analarni masalan, xalq o'yinlari, ertaklar, an'anaviy san'at kabi zamonaviy ta'limga integratsiya qilish orqali ham sohani yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati ega bo'linadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar ishtirokini ta'minlash, uy vazifalari va seminarlar orqali oilalarni bolalar tarbiyasida faol ishtirok etishiga yo'naltirilgan dasturlar ham maktabgacha ta'limni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Xulosa qilinganda, maktabgacha ta'lim nafaqat "tayyorgarlik bosqichi", balki bolaning hayotiy ko'nikmalari, kreativligi va ijtimoiy intellektini shakllantiruvchi muhim davr sifatida qaralmoqda. O'zbekistonda ham ushbu sohada izchil islohotlar, yangi dasturlar va xalqaro standartlarni qo'llash kuzatilmoqda. Kelajakda yanada shaxsga yo'naltirilgan, texnologik va ijtimoiy jihatdan muvozanatli yondashuvlar ustunlik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. "O'zbekiston respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda birinchi galdagi vazifamiz" Fayzullayeva Nozima. International scientific-online conference 2023
2. "Maktabgacha ta'limda: sifat va samardorlik ,rivojlanish istiqbollari"S.Tursunbayeva 2025
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish davlat hukumati e'tiborida .O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" U.R.Radjapov &I.O.Aliyeva 2021
4. Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 08.09.2019
5. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi amalda" Xalq so'zi"

Internet manbaalari

1. <https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/940/840>
2. <https://library.ziynet.uz/>